



**“SHÒR YUVISH ME'YORLARINING TUPROQ SHÒRLANISH
DARAJASIGA TA'SIRI”**

Qurbonova Sadoqat Masharib qizi

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tabiiy va qishloq
xo'jaligi fanlari fakulteti
Agronomiya kafedrası 70810203-tuproqshunoslik mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu tezis sho'r yuvish me'yorlarining tuproq sho'rlanish darajasiga ta'sirini o'rganish va optimal sho'r yuvish me'yorlarini ilmiy asoslash.*

Kalit so'zlar: *Yer sho'rini yuvish, A.Middendorf, V.V.Dokuchayev, M.M.Bushuyev, N.A.Dimo, o'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlar, mineral o'g'itlar.*

Kirish

Yer sho'rini yuvish, sho'rlangan tuproqlarni yuvish— tuproqdagi o'simlik uchun zararli tuzlarni eritib, tuproq-grunt O'zbekiston Respublikasi yer fondining toifalar bo'yicha taqsimotining yuqori qatlamlaridan quyiga va so'ng sho'ri yuviladigan maydon tashqarisiga chiqarib yuborish; melioratsiya tadbirlaridan biri.

O'zbekistonda sho'r va sho'rlanishga duchor bo'lgan yerlarni suv bilan yuvib o'zlashtirishni birinchi marta A.Middendorf, keyinchalik V.V.Dokuchayev, M.M.Bushuyev, N.A.Dimo nazariy asoslab berdilar. Sho'ri yuviladigan maydon yuzasiga berilgan suvda tuproq zarrachalaridagi tuz kristallari eriydi. Hosil bo'lgan eritmani shimilishda davom etayotgan suv o'z harakati bilan tuproqning pastki qatlamlariga olib tushadi va shunday qilib, tuproqning o'simlik ildizi tarqaladigan qismi zararli tuzlardan tozalanadi.

Tezisning maqsadi shuki, O'zbekistonda shòr yuvish me'yorlarining tuproq shòrlanish darajasiga ta'sirini tahlil qilish. Bu kirish qismini yozishda shòr yuvish me'yorlarining tuproq shòrlanish darajasiga ta'siri jarayonining dolzarbligi va uning ahamiyati bilan tanishtirish, shuningdek, tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniq ko'rsatish muhimdir. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy ahamiyati va amaliy natijalariga e'tibor qaratish orqali shòr yuvish me'yorlarining tuproq shòrlanish darajasiga qarshi kurash jarayonlarida qanday muhim yutuqlarga erishish mumkinligini ko'rsatish lozim.

Muhokama va natijalar

Yerlarning sho'rlanish darajasi va joyning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda sho'r yuvish muddatlari, me'yorlari, necha marta yuvish zarurligini to'g'ri belgilashga alohida e'tibor berish muhim hisoblanadi. Sho'rlanmagan yerga





nisbatan kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda hosildorlik 15-20 foizga, o'rta sho'rlanganda 30-50 foizga, kuchli sho'rlanganda 70-80 foizga kamayishi ko'p yillik ilmiy izlanishlarda isbotlangan. Shu bois, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash muhim omil bo'lib, ekinlar hosildorligini keskin oshishiga sharoit yaratadi. Sho'rlangan yerlarda shudgorlash, yalpi va joriy yer tekislash ishlari o'z vaqtida sifatli o'tkazilgandan so'ng, tuproqning sho'rlanish darajasiga qarab kuchsiz sho'rlangan yerlar gektariga 2000-2500 kubometr, o'rtacha sho'rlangan yerlar gektariga 4000-4500 kubometr, kuchli sho'rlangan yerlar 6000-6500 kubometr me'yorda suv sarflab yuviladi. Kuchsiz sho'rlangan yerlar 1 marta, o'rtacha sho'rlangan yerlar 2 marta va kuchli sho'rlangan yerlar 3,4 marta yuviladi. Tuproqning sho'rini sifatli yuvish uchun uning mexanik tarkibi, suv o'tkazuvchanligi, yerning nishabi va qay darajada tekislanganligiga qarab, 0,15-0,35 gektar kattalikda pollar olinadi. Buning uchun KZU-0,3 ariq qazigich-tekislagich yordamida har 50 metrdan 50-60 sm balandlikda uzunasiga marzalar olinadi, ikki uzun marza olingach, o'qariqlar olinadi. Ko'ndalangiga olinadigan marzalar orasidagi masofa 30-50 metr, cheklarning balandligi esa 50-60 sm bo'lishi lozim. Kuchli darajada sho'rlangan yerlarda pollar maydoni 0,25-0,5 gektar atrofida olinib, 50-60 sm balandlikda marza tortiladi. Marzalar mustahkam bo'lishi lozim. Aks holda, suv urib ketib, 20-25 foiz ortiqcha suv sarflanadi.

Ekspluatatsion yoki profilaktik (joriy) Yer sho'rini yuvish dalalar ekindan bo'shagan davrda amalga oshiriladi va tuproq-gruntning yuqori qatlamini mavsum davomida to'plangan tuzlardan tozalash uchun o'tkaziladi. Shunday sho'r yuvishlarni bir necha yil davomida uzluksiz o'tkazish natijasida tuproqni sho'rsizlantirishdaa erishiladi. Bunday usul kapital sho'r yuvishga nisbatan yerlarni qishloq xo'jaligi oborotidan chiqarish, qo'shimcha drenaj qilish va sug'orish tarmog'ini kuchaytirish yoki qayta qurishni talab qilmaydi. Ayrim hollarda joriy sho'r yuvishni tuproqda nam jamg'arish uchun o'tkaziladigan suv berish — yaxob ham bajaradi. Sug'orma dehqonchilik zonalarida ekspluatatsion sho'r yuvish kuz-qish faslida 3—4, ayrim yerlarda esa 6—8 ming m³/ga umumiy normada, 6—8 kun oralatib, 2—3 marta suv berish yo'li bilan o'tkaziladi. Atmosfera yog'inlari ko'p (250 mm) yerlarda profilaktik sho'r yuvishni kuz-qish davrida o'tkazish maqsadiga muvofiqdir. Yog'inlar kam tushadigan mintaqalar (Xorazm, Qoraqalpog'iston)da yerlarni kuzda (noyabr.) 2—3 marta va albatta ekish oldidan qo'shimcha (fevral.—mart) yuvish tavsiya etiladi. Kam sho'rlangan va mexanik tarkibi yengil tuproqlarda faqat bahorgi yuvish bilan cheklanish mumkin. Bunday suv ayni vaqtda yaxob vazifasini ham bajaradi.





Xulosa: Xulosam shuki, Yerlarning sho'rini yuvishda dalaning boshidan pastki qismiga qarab, har bir pol o'qariqlardan alohida suv ochib to'ldiriladi, poldan-polga suv ochish mutlaqo mumkin emas. O'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlarda har bir suv bostirilgandan so'ng yengil tuproqlarda 2-3 kundan, mexanik tarkibi o'rtacha tuproqlarda 5-6 va og'ir tuproqlarda 7-8 kundan keyin yana 2 va 3 marta suv bostirish orqali yerlarning sho'rini yuvish ishlari amalga oshiriladi. Sho'r yuvishning eng maqbul muddati 20-noyabrdan 10-fevralgacha hisoblanadi. Ushbu agrotexnik tadbirni tuproq harorati -7...-10 OS darajada past bo'lmaganda amalga oshirish kerak. Suv tanqisligi kuzatilgan yillarda tuproq sho'rini yuvishda daryo suvini iqtisod qilish uchun zovur (zahkash) kollektor suvlaridan foydalanish mumkin. Kuchli sho'rlangan yerlar sho'r suv bilan yuvilganda shu suv konsentratsiyasiga yetguncha uni yuvish mumkin, keyinchalik sho'rni kerakligicha yuvish uchun daryo suvidan foydalanish lozim. Tuproq sho'rini yuvish shu yerda hosil bo'ladigan tuproqdagi suv konsentratsiyasiga bog'liq. Masalan, tarkibida 3 g/l tuz tutgan suv bilan yuvilsa, tuproqda shu konsentratsiya hosil bo'lganga qadar yuvilishi mumkin, keyinchalik esa daryo suvi bilan yuviladi. Shuning uchun sho'r suvlar bilan kuchli va o'rtacha sho'rlangan yerlarni yuvish ma'qul. Tuproq sho'rini sho'r suv bilan yuvishda daryo suviga nisbatan 1,5 marotabagacha ko'proq suv sarflanadi. Sho'r yuvishni, albatta, zahkash va kollektorlar yaxshi ishlaydigan holatda amalga oshirish kerak. Dala maydonlarining tekisligi tuproq sho'rini yuvishda katta ahamiyatga ega. Chunki, faqat tekis yerdagina sho'rni yaxshi yuvish mumkin, aks holda tuzlar dalaning baland joylariga chiqib, to'planib, ko'chatlarini siyrak bo'lishiga olib keladi. Shu bois, dehqonchilikni yerlar melioratsiyasidan boshlash kerak. Birgina meliorativ holatni yaxshilash, hosildorlikni oshirishga imkon yaratadi. Ta'kidlash lozimki, sho'rlanmagan yerlarda hosilning 50 foizi o'g'itlarga bog'liq bo'lsa, sho'rlangan yerda mineral o'g'itlarning ta'siri pastroq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo'ziyev R.Q. O'zbekiston tuproqlari – Toshkent: 2018– 415 b
2. Gafurova L.A, Abdullayev S.A. Tuproqlarning ekologik holati va muhofazasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 196 b.
3. Abdullayev B.A. Sho'rlangan tuproqlarni meliorativ holatini yaxshilashning zamonaviy usullari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 186 b.
4. Mirzayev A., Sug'orish va zax qochirish melioratsiyasi, T., 1979;
5. Osvoyeniye zasolennix oroshayemix pochv i oxrana pochvennogo pokrova, M., 1980;
6. Nakopleniye i vimivaniye soley iz ostrukturennix pochv, M., 1984.

